TARIXIY DRAMALARDA IJODKORLAR OBRAZI

Badalova Jamila Jamalovna
TerDPI o'qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada biografik mumtoz dramaturgiya va Nodira tarixi fojeaviy dramasi haqida, drama nazariyasi haqida so'z boradi,tarixiy dramalarda qahramon obrazi uni ajratib turadigan tomonlari haqida fikrlar mavjud

Kalit so'zlar: drama, mumtoz, fantaziya, obraz, ijtimoiy muammo, g'oya, biografiya.

"O'zbek tarixiy dramaturgiyasida tarixiy-biografik drama yetakchi o'rin egallar ekan, bu yo'nalishdagi dramalarda qahramon va davr biografiyasi, tarixiy shaxs hayoti hamda taqdirining xalq hayoti va taqdiri bilan aloqasi bir-biriga o'zaro bog'lanib ketadi. Yana bir tomoni borki, tarixiy-biografik dramalarda dramaturg tarixiy shaxs xarakterini estetik jihatdan baholaydi, uning tarixdagi o'rnini aniqlashga intiladi. Bu kabi asarlarning yetuk namunalarida tarixiy shaxsning xalq ommasi bilan aloqasi darajasini aniqlashga ham alohida ahamiyat beriladi. Shu tufayli asardagi kichik masalalardan tortib, katta ijtimoiy muammolargacha tanlangan tarixiy shaxs biografiyasi bilan bog'liq holda beriladi va barcha jihatlar asarning asosiy g'oyasini ochishga bo'ysundiriladi"[1]. Hozirgi milliy dramaturgiyamizda yaratilgan tarixiy mavzudagi dramalar ma'lum bir tizim darajasiga ko'tarilgan. Tarixiy-biografik mavzuda yaratilgan dramalarning aksariyati ijodkorlar, shoir va adiblar hayoti, ijodi, taqdiri bilan bog'liq. Shu jihatdan tarixiy-biografik yo'lanishdagi dramatik asarlarni shartli ravishda quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Mumtoz shoirlar obrazi yaratilgan dramatik asarlar.

[1] Раҳматуллаева Д. Тарих ва театр. Тошкент. Ғ,Ғулом НМИУ. 2022. 13-бет.

2. Zamonaviy adabiyot namoyandalari obrazi yaratilgan pesalar.

Tarixiy mavzuda yaratilgan dramatik asarlarning eng muhim jihati tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning bir-biriga uyg'un kelishidir. Chunki tarixda yashab o'tgan ijodkorlar obrazini yaratishda u yashagan ijtimoiy muhit, tarixiy sharoit, u mansub bo'lgan adabiy jarayon ham hisobga olinishi zarur. Ushbu holatlarni butun bir organizm sifatida olib adabiy qahramon obrazini yaratish, uni sahnada gavdalantirish ijodkorning individual mahoratiga ham bog'liq. "Ma'lumki, tarixiy shaxslar obrazi mavjud tarixiy faktlar asosida vujudga kelsa, uni o'rab turgan kishilar, ayniqsa, oddiy xalq vakillari obrazlari muallifning tarixiy haqiqat bilan yo'g'rilgan boy fantaziyasi mahsuli sifatida yaratiladi. To'qima obrazlar yozuvchiga tarixni, o'tgan davrlar manzarasini to'ldirishga yordam beradiMilliy dramaturgiyada ijodkorlar obrazini yaratish XX asrning qirqinchi yillaridan boshlandi. Bunga Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy", H. Razzoqovning "Nodira", "Alam va qasos", "Zulmatdagi nur", Uyg'unning "Zebuniso", T. To'laning "Quvvai qahqaha" ("Nodirabegim"), S.Abdullaning "Muqimiy", B.Avazov, T.Xo'jaevning "Furqat", Yunus Yusupovning "Mavlono Ogahiy" dramalarini misol qilib olishimiz mumkin.

Respublikamiz istiqlolidan keyingi yillarda mumtoz adabiyotimizda yorqin iz qoldirgan, asarlarida xalq dardini tarannum etgan shoirlar obrazini yaratish an'anaga aylandi. U.Azimning "Zahiriddin Muhammad Bobur", X.Davronning "Boburshoh", Z.Muhiddinov, M.Hamidovaning "Zahiriddin Muhammad Bobur" dramalari shoh va shoir Bobur obrazini turli rakurslarda yaratishga bag'ishlangan. Bundan tashqari E.Xushvaqtovning "Shoh Mashrab", Ziyo Najmiyning "Zandirband sher", K. Avazning "Ogahiy", "Feruz" ("Saqili navo"), N. Qobulning "Mashrab" ("Na falakman, na farishta"), S.Sirojiddinovning "Fig'on"

("Nodirabegim"), Z. Solievaning "Uvaysiy", Azim Tursunning "Mashrab" dramalari tarixiy – biografik janrda yaratilgan asar sifatida teatr repertuaridan munosib o'rin oldi.

H. Razzoqovning "Nodira", "Alam va qasos", S. Sirojiddinovning "Fig'on" ("Nodirabegim"), dramalari adabiyotimiz tarixida shoira va madaniyat homiysi, Qo'qon xoni Umarxonning rafiqasi, Muhammadalixonning onasi Nodiraning fojiali hayoti haqida. Ma'lumki, tarixning eng murakkab davrida yashagan, o'zining va farzandlarining hayoti ayanchli yakunlangan Nodira haqidagi ilk dramatic asarlar muallifi ham Hoshimjon Razzoqovdir. "Nodira" dramasi uch parda, yetti ko'rinishli musiqali dramadir. Drama voqealarida XIX asr birinchi yarmida Umarxonning vafotidan keyin Qo'qon xonligidagi boshboshdoqliklar, yosh xon Muhammadalixonning otasi davridagi amaldorlarni jazolab, quvg'in qilishi, natijada atrofidagi riyokor, sotqin saroy a'yonlari makri bilan Buxoro amiri Nasrulloxon qo'lida halok bo'lishi ko'rsatilgan. Nodira dramada ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: u shoira Mohlaroyim va davlat arbobi, mard ayol. Shu ikki qirra uni betakror qiladi. U ba'zan qizg'in siyosiy bahslarga qatnashadi, ba'zan esa she'rga yuzlanadi.

Drama voqealari shunday boshlanadi: "Qo'qon arkidagi Nodiraning xos xonasi. O'ymakorlik bilan naqshlangan tokchalarda kitoblarning muqovalari ko'rinmoqda. Devor qoziqlarida dutor, tanbur, g'ijjak, doira kabi musiqiy sozlar. Chiroyli xontaxta ustida Nodira tanho she'r yozmoqda. Tong yorishib kelyapti. U she'rini tugatib, o'qib ko'rib, so'ng dutor bilan kuylaydi"[2]. O'ttiz ikki yoshida beva qolib, bu boshida nelar kechgan, qalban bir tomoni el-u yurtga band, qolgan

[2] Zulmatdagi nur. H. Razzoqov. Toshkent "Akademnashr" 2019.B-22. Нашрга тайёрловчи: Д.Абдуллаева.

qismini she'rga payvand etgan ayolning iztiroblari shoiraning quyidagi mashhur baytlari orqali ifodalanadi:

"Fig'onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdan,
G'amim ko'p, ey ko'ngul, sen behabarsan holi zorimdan.
G'uborim ishq vodiysida barbod o'di andoqkim,
Biyobonlarda majnun to'tiyo izlar g'uborimdan.
Qizil qondir sirishkim, za'farondir chehrai olim,
Meni kim ko'rsa farq etmas xazon birla bahorimdan…"[3].

"Nodira" dramasining asosiy mavzusi – shaxs va jamiyat, adolat va zulm, siyosiy va ijtimoiy munosabatlar bo'lib, unda badiiy va tarixi haqiqatning to'qimalari aniq ko'rsatilgan. Asarda markaziy o'rinda Nodira shaxsiyati turadi, u o'zining zulmga, davrdagi zo'ravonlik va mustabidlikka qarshi kurashi orqali ulug' tarixiy voqealarni ko'zga ko'rsatishga harakat qiladi. "Men she'rim bilan xalqimga yo'l ko'rsataman, zulmga qarshi so'z bilan kurashaman!"- degan satrlar Nodiraning xalq dardiga naqadar yaqin bo'lganligini ochib beradi. U o'zining so'z qudrati, fikr erkinligi va jur'ati bilan ko'plab erkaklardan ustun turadi. Dramada u nafaqat o'z sha'nini, balki butun ayollar sha'nini himoya qiladi. Buni dramadagi Muhammadali otasining kanizagi Oyparchani nikohiga olmoqchi bo'lganda o'g'liga qarshi kurashi, Oyparchani himoya qilishida ko'rish mumkin.

[3] Zulmatdagi nur. H. Razzoqov. Toshkent "Akademnashr" 2019.B-22.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Раҳматуллаева Д. Тарих ва театр. Тошкент. Ғ,Ғулом НМИУ. 2022.
2. Zulmatdagi nur. H. Razzoqov. Toshkent "Akademnashr" 2019.B-22. Нашрга тайёрловчи: Д.Абдуллаева.
3. Boburnoma -Toshkent Sharq nashriyoti 2002
4. Hoshimjon R. Nodira daramasi Andijon 1959